



SHEVA VA CHETDAN KIRIB KELGAN SO'ZLARNING BADIY O'ZBEK TILIGA TA'SIRI VA TILIMIZNING BUZILISHINI OLDINI OLISH

Azzamov Yusuffjon Radjaboyevich,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Mamajanova Mazmunabonu Ixtiyor qizi,
Tarjimonlik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola kundalik hayotimizda ko'chalar hamda ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek badiiy tilining buzilish holatari va ularga yechimlar, shu bilan birga yangi sohalar rivojlanishi natijasida ko'plab terminlarning o'zbek tili lug'atidan joy olishi hamda ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: terminlar, tadbirkorlar, o'zbek lug'ati, sobiq sovet, mustamlaka.

Аннотация. В данной статье речь идет о случаях нарушений узбекского художественного языка на улицах и в социальных сетях и их решениях. В результате развития многих областей обсуждается появление новых терминов в словаре узбекского языка и их влияние.

Ключевые слова: термины, предприниматели, узбекский словарь, бывший советский, колония.

Abstract. This article is about cases of violation of the Uzbek artistic language in the streets and social networks and solutions to them. As a result of the development of new fields, the formation of new terms in the Uzbek language and their influence are discussed.

Key words: terms, entrepreneurs, Uzbek dictionary, former Soviet, colony.

Til har bir ellat va millatning o'zligini anglatadi o'sha xalqning faxri hamda iftixori deb yuksak qadrlananadi Shu bilan bir qatorda o'zbek tili ham necha ming asrlarga ega va lug'aviy so'zlarning boyligi bilan nom qozonib kelmoqda. O'zbek tili ya'ni turkiy tilning tarixan boy xususiyatlarining misli ko'rilmagan tomonlari borligi sababli necha ming asrlar davomida shoir yozuvchi va olimlar tomonidan dramatik nasriy va nazmiy hamda turli xil kuychilar ijrosida cholg'uga solib kelinmoqda. Bunga misol qilib turkiy tilning sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning ijodiga yuzlansak uning xamsa dostoni birinchi turkiy tilda yozilgan doston hisoblanadi. Alisher Navoiy bilan bir qatorda Zahriddin Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Anbar Otin, Furqat va boshqalar ijodi ham turkiy tilning yuksak darajada mukammal ekanig dalildir.

Asrlar davomida qadrlanib kelayotgan o'zbek tili 21-asrga kelib qay holatiga tushmoqda? Shevalar va chetdan kirib kelgan so'zlar oqibatida o'zbek tili buzilish holatlari va ularning sabablarini misollar bilan ko'rib chiqamiz.

O'zbek davlati dunyoviy davlatdir va shu sababli boshqa davlatlar bilan chambarchas aloqador. Ammo tarixan boshqa ellatlarga mustamlaka bo'lishi oqibatida ham til evolutsiyasiga ta'sir etgan omillar mavjud bo'lgan, misol uchun: sobiq sovet davrida rus tilini davlat tili qilish siyosati nimalarni o'z ichiga olgan edi? Maktablarda oliygohlarda va turli o'quv yurtlarida ta'limni krill alifbosida olib borish va rus tili darslari soatlarini ko'paytirish, davlat idoralariga va oddiy ish bilan bog'liq masalarga ham rus tilida hujjat tayyorlash va ariza yozish kabi siyosat albatta o'sha tilni xalq ichiga olib kirmay qolmadi. Hatto juda ko'p ruscha so'zlar o'zbeklashib ketdi. Masalan: tuman so'zi-rayon, viloyatni – oblast, sinfsardori-sinfkom, mahalla oqsoqoli-dankom mahalla noziri-uchastkovoy. Said Axmadning sobiq hikoyasi ham bunga isbot bo'ladi:

"Bu orada uyim xatga to'lib ketdi. Pioneerlar bilan uchrashuv, meditsina xodimlari bilan uchrashuv, mebel fabrikasi ilg'or ishchilari bilan uchrashuv... Albatta, bularga rais o'zi bilib muomala qildi-yu, ammo rayon pojarniy komandasining pensiyaga chiqayotgan kekxa xodimini tabriklashni menga yuklab qo'ysa bo'ladimi. Bordim. Bularning tantanasi g'alati bo'larkan". Bu yerdagi pionerlar, meditsina, rayon, pensiya, pojarniy kabi so'zlarni mustamlaka davrida qolib ketgan va o'zlashma so'zlarga aylangan deyish mumkin. Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak hozirgi kunda iqtisod, siyosat, tibbiyot va boshqa sohalar rivojlanishi oqibatida ularga bog'liq bo'lgan terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi va moslashishi oddiy holatlardan biri bo'lib qoldi. Misol uchun: tibbiyot sohasida kapinitsa, MRT, analiz, iqtisodiyot sohasida: adaptatsiya, intensiv, inversiya, texnika sohasida esa kompyuter, printer, protsessor kabi so'zlar o'zbek tili lug'atidan o'rin olmoqda. Buni Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasida uchratishimiz mumkin;

Olimjon; Tashqi ko'rinishi odamdan farq qilmaydi. Ko'radi, eshitadi, gapiradi! Xatti-harakati, imo-ishoralari, gap-so'zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirgan.

Qo'chqor: – Nima – sinmum?

Olimjon: – Maksimum. Masalan, boshqaruv blokiga yumor hissi bilan bog'liq mikrosxema o'rnatilsa...

Qo'chqor: – Nima sxema

Olimjon: – Mikrosxema. Yumor hissi bilan bog'liq mikrosxema o'rnatilsa, hazilkash, quvnoq, biroz shaddodroq ayolga aylanadi. Lirik hisli mikrosxema o'rnatilsa, ayollarga xosnazokat, ibo paydo bo'ladi.

Bu misollar albatta asarlarda va bunda ishlatilayotgan so'zlar o'zbek lug'atidan o'rin olgan ammo hozirgi kunga kelib juda ham ko'p joylarda o'zbek tiliga bo'lgan xurmatsizlik va badiiy adabiyotdan chekinishlarga duch kelamiz. Bu qanday bo'lishi mumkin degan savol tug'iladi. Shaharsozlikning rivojlanishi oqibatida ko'chalar va binolar sifatli holatga keltirilmoqda. Tadbirkorlarga bo'lgan e'tibor va talablar oshib bormoqda. Biz ko'chalarda turli xil tadbirkorlarning yuritayotgan ishlari va binolarga ko'zimiz tushadi. Masalan: go'zallik salonlari, turli xil savdo markazlari, kiyim-kechak do'konlari, davlat va



nodavlat tashkilotlari ochgan markazlarning nomlariga ko‘zimiz tushadi. Misol uchun: Magic Salon, Miss.laura, Zara nomi ostidagi go‘zallik salonlari, Tunning.uz, Kumho, Car fix kabi mashina ustaxonalari, Karzinka Button kabi savdo do‘konlari, Parij bujiteriya, Luriya, Florida , Lady hause kabi kiyim-kechat markazlariga duch kelamiz. Bu misollarni bejizga aytib o‘tmadik. Negaki bu joylarning nomlarida chet eldan kirib kelgan ruscha inglizcha so‘zlardan foydalanilgan bo‘lib o‘zbek tilining buzilish holatlariga sabab bo‘lmoqda. Nafaqat bu sabablar balki ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi hamda televideniya sohasida chiqarilayotgan ko‘rsatuv va turli kino, seriallarning badiiy til talablariga javob bermasligi til uchun mudhish holatdir. Hozirgi kunda yoshlar turli ijtimoiy tarmoqlarda faol. Misol uchun ular vidio blok yoki vayn deb ataluvchi qisqa vidiolar muhlisidir. Ammo o‘sha blok va vloklarda shevalar, badiiy tilning buzilishi ruscha so‘zlarning ishlatilishiga guvoh bo‘lamiz. Yoki turli intervyularda san‘atkorlar bilan bo‘lgan suhbatda ko‘pchilikigining javob va izohlari rus tilida bo‘lishi ham bir misoldir.

O‘zbek tili boy va mukammal tildir uni butun dunyoga tanitish lozim. Badiiy tilni rivojlantirish va tilning yo‘qolib ketishini oldini olish uchun yuqorida keltirilgan kamchilik yechim topish darkor. Iloji boricha shahar ko‘chalarida markazlar nomlarini o‘zbekchallashtirish, televideniyada ham madaniyat qoidalariga roiya qiladigan malakali xodimlarni ko‘paytirish serial va kinolardagi so‘zlarni badiiylashtirish va shu bilan bir qatorda o‘zbek tiliga oid tadbirlarni ko‘paytirish aholiga targ‘ibotni shakllantirish, xalq qalbida tiliga va vatanga bo‘lgan muhabbatni oshiradi. Tilga bo‘lgan hurmatsizliklar yo‘qoladi. Va bu natijalar esa o‘zbek tilining uzoq yillar davomida gullab, yashnashiga va avlodlar qalbida ham muhim joy olishiga sabab bo‘ladi. Bu haqida buyuk mutaffakir shoir Alisher Navoiy ham bejizga: “Til- shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa- tilning ofatidir”- deya bejizga takidlab o‘tmagan. Til ota-bobokalonlarimizdan qolgan muqaddas merosdir. Shunday ekan har birimiz bu merosni avlodlarimizga chiroyli tarzda yetkazib berish oliy burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 6-sinf adabiyoti 2-qisim Toshkent-2013 “Ma’naviyat” nashiryoti Said Axmad “Sobiq” hikoyasi 9-bet.
2. 9-sinf adabiyoti Toshkent-2019 “O‘zbekiston” nashiryoti Sharof Boshbekov “Temir xotin” 266-bet.